

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 82 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	



PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH

Obidova Zilola Ikromjon qizi

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti

Makroiqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada Markaziy bankning makroiqtisodiy prognozlari, pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlari, pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi, pul-kredit siyosati sharhi hamda uning operatsion mexanizmi masalalari yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat pul-kredit siyosatining o'ri, global iqtisodiy inqiroz sharoitida pul-kredit siyosatining ahamiyati va u bilan bog'liq ayrim dolzarb iqtisodiy muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pul-kredit siyosati, makroiqtisodiy prognoz, transmission mexanizmi, bank resurslari, global iqtisodiy inqiroz, operatsion mexanizm, modernizatsiya, hisob stavkasi.

Abstract. The article examines the macroeconomic forecasts of the Central Bank, the processes of developing and implementing monetary and credit policy, the transmission mechanism of monetary and credit policy, the monetary policy review, and its operational mechanism. In addition, the role of state monetary and credit policy in the context of economic modernization, the importance of monetary and credit policy during a global economic crisis, and several related economic challenges are analyzed from a scientific perspective.

Keywords: monetary and credit policy, macroeconomic forecast, transmission mechanism, banking resources, global economic crisis, operational mechanism, modernization, discount rate.

Аннотация. В статье рассматриваются макроэкономические прогнозы Центрального банка, процессы разработки и реализации денежно-кредитной политики, механизм трансмиссии денежно-кредитной политики, обзор денежно-кредитной политики, а также ее операционный механизм. Кроме того, проанализирована роль государственной денежно-кредитной политики в условиях экономической модернизации, значение денежно-кредитной политики в период глобального экономического кризиса и ряд актуальных экономических проблем.

Ключевые слова: денежно-кредитная политика, макроэкономический прогноз, механизм трансмиссии, банковские ресурсы, глобальный экономический кризис, операционный механизм, модернизация, учетная ставка.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida talab va taklifdagi o'zgarishlar, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan barcha sa'y-harakatlar, chora-tadbirlar hamda pul-kredit sohasidagi qarorlar pul-kredit siyosatining transmission mexanizmini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi Markaziy bank faoliyatida olib borilayotgan pul-kredit siyosatining asosiy mezonini hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, makroiqtisodiy sohada qabul qilinayotgan barcha qarorlar inflyatsion maqsadlar bilan uyg'un holda, makroiqtisodiy prognozlar va umumqabul qilingan standartlar asosida aniqlanadigan inflyatsiyaning davom etayotgan davrida mamlakatimizda pul-kredit siyosatining transmission mexanizmini rivojlantirish hamda uning raqobatbardoshlik darajasini oshirish muhim iqtisodiy masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3272-sonli¹ qarori ijrosini ta'minlash maqsadida pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, ilg'or xalqaro tajribaga muvofiq Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan barcha sa'y-harakatlar, chora-tadbirlar va pul-kredit sohasidagi qarorlar inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda uning rolini kuchaytirishga qaratilgan loyihalarni amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3272-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-3339554>



Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining transmission mexanizmini rivojlantirish, bank faoliyatini tubdan transformatsiya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli² Farmoni qabul qilindi. Ushbu masalalarni ijobiy hal etish uchun mamlakatimizda asosiy hisoblangan banklarning investitsiyaviy faoliyatini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Markaziy bankning pul-kredit sohasidagi asosiy stavka bo'yicha qarorlari iqtisodiy faollikka va yalpi talabga bosqichma-bosqich, ma'lum vaqt oralig'ida kechikish bilan ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, Markaziy bank pul-kredit siyosatining transmission mexanizmlari bo'yicha qarorlarni qabul qilishda har tomonlama asoslangan makroiqtisodiy tahlil va prognozlarga tayanadi. Bugungi kunda Markaziy bank makroiqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishda, asosan, choraklik prognozlashtirish modelidan (QPM) foydalanmoqda. Bundan tashqari, bir qator ekonometrik va tarkibiy modellar prognoz natijalarini taqqoslashda hamda tadqiqotlarni amalga oshirishda qo'llanilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank faoliyatini takomillashtirish, bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash masalalari bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining markazida turibdi. O'zbekiston iqtisodiyotida pul-kredit siyosati transmission mexanizmining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, mavjud kanallarning ta'sirini kuchaytirish hamda rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Pul-kredit siyosatining mohiyatini o'rganishga qaratilgan fundamental tadqiqotlar olimlarimiz A. Abdusalomov, B. Berkinov, N. T. Bobokulov, S. Boboyev, A. Vaxobov, N. Jumayev, U. Duskobilov, A. A. Omonov, M. Kurbonbekova, O. Y. Rashidov, N. Mahmudov, H. Hakimjon, T. M. Qoraliyevlarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan.

MDH mamlakatlarida pul-kredit siyosati samaradorligini ta'minlash masalalari, iqtisodiyotning pul-kredit boshqaruvi samaradorligini tahlil qilishning turli jihatlar bo'yicha E. I. Anoxina, I. A. Alekseyevna, V. A. Antonov, Y. A. Barguyeva, A. I. Bychkov, T. M. Koraliev, B. N. Nikiforov, N. N. Martynenko, O. M. Markova, O. S. Rudakova, E. G. Lyubovtseva, O. P. Pleshanova, N. V. Sergyev, P. V. Xlyustov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Jumladan, xorijiy olimlardan J. G. Andrews, F. Allen, F. Baskett, A. S. Blinder, B. Bernanke, M. Dohler, R. Dornbusch, G. Gorton, E. Gelenbe, E. Carletti, F. Kelly, P. J. Kuhn, A. Krishnamurthy, J. B. Taylor, S. Thurner, V. B. Iversen, S. Mishkin, A. Metrick, J. M. Fleming, S. Poledna, D. M. Chiu, J. C. Stein, M. Singh, R. R. Yager, M. Haenggi va boshqalarning ilmiy ishlarida pul-kredit siyosati hamda uning transmission mexanizmi masalalari atroflicha ko'rib chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining transmission mexanizmini rivojlantirish masalalari o'rganildi. Pul-kredit instrumentlari (foiz stavkasi, majburiy zaxiralar, ochiq bozor operatsiyalari) ning bank tizimi, moliyaviy bozorlar va real sektorga ta'sirini uzatish kanallari (foiz, kredit, valyuta kursi, aktivlar narxlar, kutishlar kanallari) orqali iqtisodiyotga ta'sir mexanizmlari hamda ularning yanada samarali ishlashini ta'minlovchi rivojlantirish yo'nalishlariga ilmiy-tahliliy va amaliy yondashuvlar qo'llanildi. Transmission kanallarining samaradorligi, ularning o'zaro uyg'unligi va milliy iqtisodiyot sharoitidagi xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot quyidagi metodologik asoslarda olib borildi: tizimli tahlil, statistik tahlil, taqqoslash va empirik tahlil.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pul-kredit siyosati mamlakat iqtisodiyotiga aholining keng qatlamlari va biznes subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini buzmaganda ta'sir ko'rsatishga xizmat qiluvchi samarali vositalardan biri hisoblanadi. Garchi ushbu siyosat doirasida iqtisodiy erkinliklar ma'lum darajada cheklanishi mumkin bo'lsa-da, iqtisodiy faoliyatni tartibga solish jarayonida asosiy qarorlar, asosan, bilvosita ta'sir mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston iqtisodiyotida pul-kredit siyosatining transmission mexanizmlari jarayonida kuzatilayotgan muammolarni aniqlash, ularni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash, shuningdek, pul-kredit siyosatidan kelib chiqadigan signallarning iqtisodiyotga qanday ta'sir etishi, ushbu ta'sir qaysi kanallar orqali amalga oshishi hamda O'zbekistonda ularning yanada samarali ishlashini ta'minlaydigan rivojlantirish yo'nalishlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-4811025>

Transmission mexanizmi Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati qarorlari (foiz stavkasi, pul massasi, rezerv talablari va boshqalar)ning real iqtisodiyotga qanday yo'l bilan ta'sir etishini ifodalovchi jarayon va mexanizmlar tizimidir. U pul-kredit siyosati signallarining iqtisodiyotga tizimli va bosqichma-bosqich o'tishini ta'minlaydigan makroiqtisodiy aloqalar majmuasidan iborat.

Bozor islohotlari, moliyaviy sektorni erkinlashtirish, raqamli moliya va bank xizmatlari transformatsiyasining transmission mexanizmlariga ta'siri, shuningdek, Markaziy bankning pul-kredit instrumentlari orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishining uzatish kanallari, ularning ishlash samaradorligi hamda O'zbekiston sharoitida mazkur mexanizmni takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilindi.

Markaziy bankning asosiy stavka bo'yicha qarorlari iqtisodiy faollikka va yalpi talabga bosqichma-bosqich, ma'lum vaqt oralig'ida kechikish bilan ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, Markaziy bank pul-kredit siyosati bo'yicha qarorlarni qabul qilishda har tomonlama asoslangan makroiqtisodiy tahlil va prognozlardan kelib chiqadi. Bugungi kunda Markaziy bank makroiqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishda, asosan, choraklik prognozlashtirish modelidan (QPM) foydalanmoqda. Bundan tashqari, bir qator ekonometrik va tarkibiy modellar prognoz natijalarini taqqoslash hamda tadqiqotlarni amalga oshirishda qo'llanilmoqda.

Pul-kredit siyosati deganda to'liq bandlik sharoitida yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarishga inflyatsiyaning ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Pul-kredit siyosati davlat tomonidan belgilanadi va uni Markaziy bank amalga oshiradi. Uning yordamida davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifasini hayotga tatbiq etadi. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati yalpi ichki mahsulot, bandlik va narxlar darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.


Markaziy bank tomonidan pul taklifi yuqorida ko'rib chiqilgan vositalar yordamida oshirilganda, pul taklifi hajmi ortadi, foiz stavkasi esa pasayadi. Bu esa investitsiyalarga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi va o'z navbatida, yalpi ichki mahsulot hajmining ko'payishini ta'minlaydi. Natijada davlat ma'lum davrda o'z maqsadiga erishadi, ishlab chiqarishning pasayish jarayoni to'xtaydi, ishsizlar soni kamayadi va jamiyat daromadlari oshadi.

IS-LM va AD-AS modellari. Makroiqtisodiyotda iqtisodiy jarayonlarni tushuntirishda grafik modellardan keng foydalaniladi. Ulardan eng mashhurlari IS-LM va AD-AS modellari hisoblanadi.

IS-LM modeli iqtisodiyotning tovar bozori va pul bozorida muvozanat qanday shakllanishini ko'rsatadi. IS egri chizig'i tovar bozoridagi muvozanatni ifodalaydi va foiz stavkasi oshganda investitsiyalar kamayishi hamda yalpi ichki mahsulot hajmining qisqarishini aks ettiradi. Shu sababli u pasayuvchi shaklga ega. LM egri chizig'i esa pul bozoridagi muvozanatni ifodalaydi va foiz stavkasi oshganda pulga bo'lgan talabning kamayishini ko'rsatadi, natijada egri chiziq o'suvchi shaklda bo'ladi. Ushbu egri chiziqlarning kesishgan nuqtasi iqtisodiyotning qisqa muddatli muvozanatini, ya'ni foiz stavkasi va yalpi ichki mahsulot darajasini ifodalaydi.

AD-AS modeli esa butun iqtisodiyot miqyosida yalpi talab va yalpi taklifning o'zaro ta'siri orqali narxlar va ishlab chiqarish darajasining qanday shakllanishini ko'rsatadi. Yalpi talab egri chizig'i narxlar oshishi bilan real xarajatlarning kamayishi natijasida pasayuvchi shaklga ega bo'ladi. Yalpi taklif egri chizig'i qisqa muddatda narxlar oshishi bilan ishlab chiqarish hajmining ortishini, uzoq muddatda esa ishlab chiqarishning potensial darajaga bog'liqligini va vertikal shaklga ega bo'lishini aks ettiradi.

Mazkur modellarning kesishgan nuqtalari iqtisodiyotda narxlar umumiy darajasi va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi. IS-LM modeli asosan pul-kredit va fiskal siyosatni tahlil qilishda, AD-AS modeli esa inflyatsiya va iqtisodiy o'sish jarayonlarini baholashda qo'llaniladi. Ushbu modellar makroiqtisodiy siyosatni tahlil qilishda muhim vositalar hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Yumshoq pul-kredit siyosatining makroiqtisodiy muvozanatga ta'siri: AD-AS va IS-LM modellari asosida tahlil



Markaziy bank qarorlari asosida moliya bozorlarida, banklarning kreditlash faoliyatida, iste'mol va investitsiyalar narxlarida, bandlik darajasida, shuningdek, inflyatsiya va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarida muayyan o'zgarishlar kuzatiladi.

Pul-kredit siyosati iqtisodiyotdagi nominal o'sishga ta'sir ko'rsatadi. Bunda pul va foiz stavkalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir tanganing ikki tomoni sifatida namoyon bo'ladi. Pulning iqtisodiyotdagi muhim rolini tan olishda qiynaladiganlarning aksariyati xarajatlar va ishlab chiqarish hajmini belgilashda foiz stavkalarining roliga katta ahamiyat berishni tabiiy deb hisoblaydi. Xuddi shunday, iqtisodiyotda pulni asosiy o'zgaruvchi deb hisoblovchilarning ayrimlari ba'zan foiz stavkalarining transmission mexanizmidagi muhim rolini yetarlicha e'tiborga olmaydilar.

AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya bo'yicha pul-kredit siyosati transmission mexanizmlarining tizimli qiyosiy tahlili keltiriladi.

1-jadval. Markaziy banklar siyosatining asosiy ko'rsatkichlari (2025–2026-yillar)

Mamlakat	Markaziy bank	Asosiy foiz stavkasi (2025)	Inflyatsiya yo'nalishi	Xususiy kredit bozori xususiyati	Mamlakat
AQSh	Federal Reserve	~3,5–3,75 % (2025-yil oxiri)	Inflyatsiya ~2,7 % atrofida	Bozor kanali kuchli, primer kreditlar keng	AQSh
Germaniya	ECB (yevrozona)	~2,15 % (asosiy qayta moliyalashtirish)	Yevro hududida inflyatsiya ~2 % maqsadga yaqin	Banklararo kreditlash juda chuqur	Germaniya
Yaponiya	Bank of Japan	~0–0,1 % (so'nggi o'zgarish)	Past, BOJ 2 % maqsadga erishishga intilmoqda	Negativ stavkalardan chiqish, kreditlar yen bilan bog'liq	Yaponiya
Janubiy Koreya	Bank of Korea	~2,50 % (barqaror)	O'rtacha inflyatsiya bosimi mavjud	Kredit stavkalari eksportga bog'liq	Janubiy Koreya
O'zbekiston	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki	~7,3–10,3 %	Foiz kanali sust	Kredit va kutilmalar kanali zaif	O'zbekiston

Izohlar:

- AQShda Federal Funds stavkasi 2025-yil oxirida 3,50–3,75 % oralig'ida shakllangan (federalreserve.gov).
- Yevropa Markaziy bankining asosiy qayta moliyalashtirish stavkasi ~2,15 % atrofida saqlanib qolmoqda (European Central Bank).
- Yaponiyada Bank of Japan uzoq muddat davom etgan negativ foiz siyosatidan chiqib, stavkani ~0–0,1 % darajasiga ko'tardi (reuters.com).
- Janubiy Koreyada Bank of Korea asosiy stavkalarni barqaror darajada saqlab qolgan holda, yumshatish imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqda.
- O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya darajasi ~7,3–10,3 % oralig'ida bo'lib, 2025-yil oxiri statistikasi Markaziy bank ma'lumotlariga asoslanadi (cbu.uz).

Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda yillik inflyatsiya darajasi taxminan 7,3 % atrofida shakllandi. Ushbu ko'rsatkich 2024-yil oxiriga nisbatan sezilarli pasayishni ko'rsatib, avvalgi yillardagi 8–10 % darajasidan past bo'ldi. 2025-yilda O'zbekiston iqtisodiyotida inflyatsiya darajasi an'anaviy ravishda pasayish yo'nalishini davom ettirdi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, yillik inflyatsiyaning pasayishiga Markaziy bank tomonidan olib borilgan qat'iy pul-kredit siyosati, valyuta bozorining nisbatan barqarorligi hamda inflyatsion kutilmalarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar asosiy omillar sifatida xizmat qilgan.

Shu tariqa, AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi asosida O'zbekiston uchun pul-kredit siyosati transmission mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi aniqlanadi. Xususan, moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish, banklarning depozit bazasini kengaytirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish va innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish orqali mablag' manbalarini ko'paytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish hamda pul-kredit siyosatini yanada samarali amalga oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Markaziy bank pul-kredit siyosatining transmission mexanizmlari Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati qarorlari (foiz stavkasi, pul massasi, rezerv



talablari va boshqalar)ning real iqtisodiyotga qanday yo'l bilan ta'sir etishini ifodalovchi jarayon va mexanizmlar tizimidan iboratdir. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi ta'sirchan pul-kredit siyosatini yuritish orqali o'rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlash hamda inflyatsiya darajasini maqsadli ko'rsatkichgacha pasaytirishdan iborat.

Bunda, albatta, pul-kredit siyosatining mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati tobora ortib boradi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish doirasida moliya sohasida tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish va kichik biznesni moliyalashtirish ekotizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Banklar nafaqat o'z moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishiga ham munosib hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3272-son qarori. – <https://president.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2020-yil 12-maydagi 2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida PF-5992-son Farmon. – <https://lex.uz/docs/4832585>
3. Васильев, О. Б. Формирование и оценка инвестиционно-кредитного потенциала коммерческих банков в условиях финансовой нестабильности: номзодлик диссертацияси. – Москва, 2011.
4. Мишкин, Ф. С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков: пер. с англ. – Москва: ООО «I.D. Williams», 2013. – 485 с.
5. Taylor, J. The Robustness and Efficiency of Monetary Policy Rules as Guidelines for Interest Rate Setting by European Central Bank. Journal of Monetary Economics, 1993, Vol. 43, Issue, pp. 655–679.
6. Dodiyeu, F. U. Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'llari. Banklar va moliya bozorlari, nashr raqami ko'rsatilmagan, betlar: 7–7.
7. Karimov, N. G., Razaqov, J. X. Investitsion loyihalarni sindikatli kreditlar hisobiga moliyalashtirishning tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2019. – <https://iqtisodiyot.tsue.uz>
8. Abdullayeva, Sh. Bank ishi: darslik. – Toshkent: Moliya nashriyoti, 2012.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100